

PAPER

O‘ZBEKISTON SHAROITIDA QIZIL QORAG‘AT NAVLARINI O‘RGANISH

Abdullayeva Hilola Ravshanovna^{1,*}, Aytbayeva Dilfuza Rustamboy qizi² and
Temirova Gulira‘no Baxtiyor qizi³

¹Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti kat.i.x., professor, q.x.f.d., Toshkent and ²Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog‘dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot instituti tayanch doktoranti, Toshkent and ³O‘zbekiston Milliy universiteti, tayanch doktorant, Toshkent

*hilola.abdullayeva@mail.ru

Abstract

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi prezidentining bir qancha qarorlari, farmoishlari, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, bundan tashqari bir nechta qizil qorag‘at navlarining o‘ziga xos belgi va xususiyatlari, kimyoviy tarkibi, issiqqa, sovuqqa chidamliligi, kasallik va zararkunandalarga chidamliligi, foydali hususiyatlari xaqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.

Key words: Ribes Rubrum L, qizil qorag‘at, nav, rentabellik, cherry red, heros, rovada, mikro, makro.

Kirish

Dunyoda oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Aholini yuqori sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan doimiy ta‘minlash, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining sifati va eksport salohiyatini oshirish borasida jadal islohotlar olib borilmoqda. So‘ngi yillarda respublikamizda bog‘dorchilik va uzumchilikni rivojlantirish bo‘yicha qator hukumat qarorlari hamda farmoyishlar qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030 Strategiyasi” to‘g‘risidagi farmonining 2030-yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko‘rsatkichlarida, maqsad qilingan barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta‘minlash; qishloq xo‘jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish; qo‘shimcha 300 ming gektar yer maydonini zamonaviy suv tejaydigan texnologiyalarni qo‘llash orqali o‘zlashtirish va mazkur yerlarda ozuqabop, dorivor, moyli, dukkakli, sholi, g‘alla, sabzavot, poliz ekinlari ekish, intensiv bog‘ va uzumzorlar tashkil etish; ko‘chatchilik xo‘jaliklari reyestrini yuritish va ko‘chatlarni sertifikatlash tizimini joriy qilish; har bir tumanda agrar sohadagi ilm va innovatsiyalar, yangicha yondashuvlar, zamonaviy agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishga ko‘maklashuvchi markazlarni tashkil qilish.

Adabiyotlar tahlili

Qizil qorag‘at navlarini o‘rganish bo‘yicha keng ko‘lamli tadqiqotlar bir qator mahalliy va xorijiy olimlar (Kuminov, 1983; Maydebura, 1989 yil; Eapen, 1990; Deryugin, 1998 yil; Rudenko, 2000 yil; Baybekov, 2003) tomonidan o‘rganilgan. Qizil qorag‘at Rossiyada 15-asrdan boshlab yetishtirila boshlagan. Keyinchalik, Evropa, Osiyo va Shimoliy Amerikaning boshqa mamlakatlarida qizil qorag‘atning serhosil, sovuqqa, issiqqa chidamli tur va navlarini tanlash bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar olib bormoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

O‘zbekistonda yetishtiriladigan har xil meva-rezavor ekinlarga aholi o‘rtasida talab katta. Rezavor mevalar tarkibida organizm uchun zarur bo‘lgan vitaminlar ko‘pligi hamda shifobahsh xususiyatlari tufayli sevib iste‘mol qilinadi. Hozirgi kunda rezavor mevalardan qorag‘atga juda talab yuqori. Qorag‘at tibbiyotda yurak-qon tomir va boshqa kasalliklarni davolashda iste‘mol qilinadi hamda urfga kirgan qandolat mahsulotlari uchun talab yuqoriligi bois jadal sur‘atlarda yetishtirilmoqda. Qorag‘at mevasi tarkibidagi vitaminlar me‘yori yuqorililigi bilan

mevali o'simliklar orasida yuqori o'rnlarni egallaydi. Ayniqsa qizil qorag'at navlari S vitamini (askorbin kislotasi), fitonsid, yengil xazm bo'luvchi qand miqdori, organik kislotalar, temir hamda fosforni yuqoriligi bilan ajralib turadi [139; 8-32-b.]. Qizil qorag'at O'rta Osiyoning issiq va quruq sharoitida ochiq hamda soya yerlarida o'sadi, biroq uning hosildorligi pastroq bo'ladi. Mevalari tupning o'rta qismida g'uj-g'uj bo'ladi, ko'chati eniga kuchli o'sadi va 0,2-0,4 dan 1-2 kg gacha hosil beradi. Qorag'at ko'p yillik buta bo'lib, ildiz tizimi 2 metr chuqurlikkacha yetadi. Barglari navbat bilan joylashgan, uch-besh bo'lakli, och va to'q yashil rangli bo'lib, ba'zilar bir oz ayrimlari esa tarvaqaylab ketadi. Qizil qorag'at mevasini yangi uzilgan holda iste'mol qilish hamda ulardan sharbat, murabbo, jem va boshqa mahsulotlar tayyorlanadi. Qorag'at mevasi dorivor bo'lib xalq tabobatida yurak, qon bosimi, singa va boshqa kasalliklarni davolashda ishlatiladi. Mevasining tarkibida 4,86-7,94% qand moddasi, 0,589-2,350% kislotalar, vitamin C-30,1-110,58 mg, fosfor-1081,7 mg va boshqa ko'plab vitaminlar mikro va makro elementlar mavjud.

Tahlil va natijalar

Cherry red navi - Akademik Mahmud Mirzayev nomidagi bog'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy-tadqiqot institutida o'rganilmoqda. Lotincha nomi: *Ribes rubrum* L. Changlanishi o'z-o'zidan changlanadi, unumdor hisoblanadi. Sovuqqa -40° C gacha chidamli nav. Ekilganidan keyin 1-2 yilda hosilga kiradi. Mart-aprel oyida gullaydi, iyul oyida pishib yetiladi. Butasi kichik, tik o'suvchi. Manzarali buta hisoblanib, butalari gullaganda va hosilga kirganda chiroyli ko'rinishga kiradi. Qizil olcha qorag'ati, mevasi nordon-shirin, suvli va xushbo'y. Yangi uzilgan holda iste'mol qilish va qayta ishlash uchun mos keladi, mazali murabbo, sharbat va jele tayyorlanadi. Zararkunandalar va kasalliklarga chidamli.



Heros navi - Ertapishar nav hisoblanadi, mevasi katta, yorqin qizil rangda, shirin ta'mga ega. Lotincha nomi: *Ribes grossularia*. Unumdor tuproqda va yorug' yerda yaxshi o'sadi. Sovuqqa chidamli nav. Bu nav ham o'z-o'zidan changlanadi. Butasi o'rta kattalikda, yoyilgan bo'ladi. Kurtaklar o'rtacha qalinlikda, tekis, kulrang, bargi to'q yashil (yosh barglari och yashil), uch bo'lakli, mayda qirrali. Gullari o'rtacha kattalikda, rangi oq, likopcha shaklida, gorizontol holatda joylashgan, urug'lari mayda, mevalarining o'lchami o'rta, yaxshi hosilga kiradi. Kimyoviy tarkibi: qand miqdori - 9,9%, titrlanadigan kislotalilik - 0,9%, askorbin kislotasi - 35,0 mg/100 g, pektin moddalari -1,8%.

Heros navi pishib yetilgan mevasining va qayta ishlangan (murabbo) ko'rinishi

Cherry red navi pishib yetilgan mevasining ko'rinishi





Rovada navi – Niderlandiyada yetishtirilgan kechpishar, mahsuldor, o'z-o'zidan unumdor nav. Buta ixcham, balandligi 1,5 m gacha, barglari yashil, zich, 3-5 lobli. hosil olish oson. Rezavorlar iyul oyining oxirida pishib, uzoq vaqt davomida yiqilib tushmasdan butalar ustida qolishi mumkin. Ularning og'irligi 0,8 g gacha, suvli, shirin, xushbo'y hidli. Nav sovuqqa chidamliligi, yuqori hosildorligi (19,3 t/ga), erta meva berishi, antraknoz va chang chiriyotgan kasalliklariga chidamliligi bilan ajralib turadi. O'simliklar ekishdan keyin 4-5 yil ichida to'liq hosil beradi. Yaxshi agrotexnika natijasida, bir butadan 7-10 kg meva yig'ib olinadi.

Rovada navi pishib yetilgan mevasining ko'rinishi



naf keltiradigan foydali moddalar anchagina. Ko'plab rezavor mevalar tarkibida kaliy va magniyning zarur miqdorda mavjudligi organizmda insulin ishlab chiqilishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. PF-158-son. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida Prezident Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
2. R.M.Abdullayev, H.R.Abdullayeva Rezavor mevali o'simliklar. Toshkent-2020 – B. 35-38-39
3. H.R Abdullaeva. Rezavor mevalar – tanga darmon. / J.: O'zbekiston qishloq xo'jaligi. – Toshkent, 2016. – №4. – B. 11-12.
4. Ягудина С.И – Смородина Ташкент. Изд-во "Фан" 1976. – 120 с
5. Мясищева Н.В. Товароведно-технологическая оценка новых помологических сортов красной смородины и желённых продуктов на их основе. Автореф. Дис. техн. наук. – Москва, 2009.
6. Мещерякова И.В., Ипполитов Л.С. Способы обеззараживания посадочного материала плодовых и ягодных культур в интродукционно-карантинном питомнике. // Сб. науч. Раб. НИЗИСНП, 1972. – т. 5. – С. 160-163.
7. Abdullayeva H.R, Aytbayeva D. R, Temirova G. B. "O'zbekiston sharoitida qizil qorag'at navlarini o'sish dinamikasini o'rganish" – Agro pressing jurnali 2024-yil 6 jild, 3-son 5-7 betlar.
8. Abdullayeva H.R, Temirova G.B, Aytbayeva D.R. "Ribes L- Oltinsimon qorag'at o'simligining biologik tasnifi va navlari". Agro pressing jurnali 2024-yil 6 jild, 3-son 14-18 betlar
9. <https://www.gardenia.net/plant/ribes-rubrum-rovada>
10. <https://onegreenworld.com/product/cherry-red-2/>

Xulosa

Xulosa qilib aytish mumkinki, qizil qorag'at navlari ertapishar, serhosil, sovuqqa chidamliligi, ajoyib shirin ta'mi, kimyoviy tarkibi bilan boshqa qorag'at turlaridan ajralib turadi. Mevasining tarkibidagi vitaminlar, qand, organik kislota, xushbo'y moddalarga boy bo'lgani uchun ham qimmatli hisoblanadi. Xalq xojaligida tibbiyotda va tabobatda qo'llanilishi va dorivorligi tasdiqlangan. Qand kasalligi bor bemorlar ham rezavor mevalardan bosh tortmasligi kerak. Ularning tarkibida qand moddasi bo'lsada, aynan shu xastalik muolajasi uchun